ERKINLIK VA QISMAT TO‘G‘RISIDAGI QARASHLARNING IBN RUSHD FALSAFASIDAGI TANQIDI

Raximdjanova Dilnavoz Sunnat qizi
“ALFRAGANUS UNIVERSITY” nodavlat oliy ta’lim tashkiloti katta o‘qituvchisi, PhD

Annotatsiya. Maqolada mashxur o‘rta asr faylasufi Ibn Rushdning erkinlik va qismat haqidagi tasavvurlarga keltirib o‘tgan tanqidi o‘rganilgan. Uning fikri o‘z zamonasining falsafiy, ijtimoiy va siyosiy muhitidan kelib chiqqan holatda zamondoshlarining qarashlariga antiargumentlari orqali yoritilib berilgan. Erkinlikning mavjudligi masalalariga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: erkinlik, zaruriyat, taqdir, tobelik, axloq, fatalizm, axloqiy ezgulik, iroda, tanlov.

Sharq mutafakkirlarining erk masalasiga to‘xtaladigan bo‘linsa, unda bunga misol qilib, iroda erkinligi tarafdorlari bilan qismat tarafdorlarining bir-biriga qarshi qo‘ygan bahs butun musulmon tarixi davomida olib birilganligini keltirsa bo‘ladi. Ibn Rushdning so‘zlariga ko‘ra, bu qarama-qarshilik “eng chalkash diniy masalalardan biri”dir, chunki Muqaddas bitikning dalillari ham, aqlning dalillari ham qarama-qarshi ko‘rinadi. Birinchi holatda, biz Qur’onda hamma narsa tayinlanib qo‘yilganligini yoki oldindan belgilab chiqilganligini ko‘rsatadigan ko‘plab bayonotlarni topamiz va shuning uchun odam majburlangan (mujbar); boshqa da’volar esa shuni ko‘rsatadiki, odam o‘z qarorlarini bajarishda ma’lum darajada iroda yoki qo‘lga kiritish (aktisib) erkinligiga ega va shunga mos ravishda to‘liq majburlanmagan. U ikkala tezisni qo‘llab-quvvatlash uchun bir qator Qur’on oyatlarini keltiradi. 54:49 kabi oyatlar: “biz hamma narsani me’yorida (kadar) yaratdik” hamda 57:22 oyatida “na yer yuzida, na o‘zingizda falokat yuz bermaydi, lekin bu kitobda mavjud” kabi jumlalar ilohiy qismat yoki majburlanishni anglatadi. Bunga qarama-qarshi bo‘lgan boshqa oyatlar, mukofotlanish yoki jazolanishga undashi mumkin bo‘lgan to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri xatti-harakatlarni “qo‘lga kiritish” haqida so‘z boradi, masalan, 42:29 oyatida “bu sizning qo‘llaringiz o‘ziga olgani tufayli” va 2:286 oyatida “u [qalb] qo‘lga kiritgani uchun mukofot oladi va qo‘lga kiritgan yovuzligi uchun ham hisobot berishga chaqiriladi”.

Yoki bashoratga ega an’analarga xos bo‘lgan ushbu hadisni olsak: “inson tabiiy holatda tug‘iladi; uni yahudiy yoki nasroniy qiladigan ota-onasidir”. Ushbu an’ana, Ibn Rushdning so‘zlariga ko‘ra, insonning ishonchsizligi (kufr) uning tarbiyasi natijasidir, uning to‘g‘ri e’tiqodi (imon) esa uning asl tabiati (fitra) bilan bog‘liq. Biroq, hadisga Payg‘ambarning Qodir Tangrining so‘zlari bilan aytilgan yana bir bayonoti zid keladi: “Men bu [odamlarni] Jannat uchun yaratdim, shuning uchun ular Jannat aholisining ishlarini qiladilar, boshqalarni esa Do‘zax uchun bunyod etdim, shu boisdan ular Do‘zax aholisining ishlarini qiladilar”. Ushbu hadis itoatsizlik, gunoh va imonsizlik u tomonidan oldindan belgilab qo‘yilganligini aniq anglatib turibdi. Aynan shu sababli, davom etadi Ibn Rushd, ba’zi musulmonlar, masalan, mutaziliylar, odamning qo‘lga kiritganlari xudojo‘y yoki gunohkor xatti-harakatlariga sabab bo‘lishini ta’kidlagan, natijada esa u mukofot yoki jazoga tortiladi; boshqalar, masalan, deterministlar (Jabariya), odam o‘z xatti-harakatlarida to‘liq deterministik yoki majburiylik ostida ekanligini aytib o‘tgan. Uning so‘zlariga ko‘ra, ashariylar oraliq, ammo ma’nosiz pozitsiyani taklif qilishgan, unga ko‘ra odam “qo‘lga kiritish” qobiliyatiga ega; ammo qo‘lga kiritish vositalari ham, qo‘lga kiritishning o‘zi ham Xudo tomonidan yaratilgan. “Agar qo‘lga kiritish va qo‘lga kiritilgan harakatning o‘zi, - deb yozadi u, - ikkalasi ham Xudo tomonidan yaratilgan bo‘lsa, u holda individ [xizmatkor], shubhasiz, u qo‘lga kiritishiga majburlangan bo‘ladi”[1].

Muqaddas bitikning dalillariga u yoki bu pozitsiyani qo‘llab-quvvatlash maqsadida keltirilishi mumkin bo‘lgan aql-idrok dalillari yoki qarama-qarshi dalillar qo‘shiladi. Shunday qilib, agar inson, keyinchalik mutaziliylar aytganidek, o‘z harakatlarining ijrochisi yoki yaratuvchisi deb hisoblanilsa, unda ba’zi harakatlar yoki hodisalar Xudoning irodasiga zid ravishda sodir bo‘ladi. “Bu, deydi Ibn Rushd, musulmonlarning Xudodan boshqa yaratuvchi yo‘q degan yakdil fikriga zid bo‘lar edi”[2].

Agar boshqa tomondan, odam o‘zining barcha harakatlarida to‘liq majburlangan yoki determinlashgan deb belgilangan bo‘lsa, unda diniy burch (taklif) chidab bo‘lmas talab shakliga aylanish ehtimoli bor edi. Shunda inson bilan umuman qobiliyatsiz jonsiz narsalar (istita’ah) o‘rtasida hech qanday farq bo‘lmay qoladi. Aynan shu sababli, Ibn Rushdning ta’kidlashicha, aksariyat musulmonlar qobiliyatlar, jumladan, sog‘lom fikr yuritish qobiliyati diniy burchning zaruriy sharti ekanligiga ishonishadi. Aynan shu sababli old ashariylardan bo‘lgan al-Juvayniy o‘zining Nizomiyga yo‘llagan maktubida inson Xudo chidab bo‘lmas narsani talab qila olmasligidan kelib chiqqan qobiliyatlarning ma’lum bir o‘lchoviga ega ekanligini tan olishga majbur bo‘lgan. Biroq, Ibn Rushdning ta’kidlashicha, dastlabki ashariylar Xudo chidab bo‘lmas

[1] Averroes on Plato’s ‘Republic’; trans. R. Lerner, Ithaca and London: Cornell University Press, 1974. – 224f p.
[2] O‘sha yerda, 225 p.

narsani talab qilishi mumkinligini tan olishgan, mutaziliylar esa dono va adolatli yaratuvchi haqida gap ketganda uni ratsional qabul qilinmas deya rad etishgan[1].

Ushbu ikki qarama-qarshi nuqtai nazarni murosalash uchun, avvalo, Ibn Rushdning fikriga ko'ra, diniy qonun chiqaruvchining (shari) maqsadi bir nuqtai nazarni boshqasiga qarama-qarshi qo'yish emas, balki ular o'rtasida vositachi bo'lish ekanligini tushunishimiz kerak. Ko'rinib turibdiki, Qodir Xudo bizga ma'lum qobiliyatlar yoki kuchlarni berdi, buning natijasida tabiatan qarama-qarshi harakatlarni amalga oshirish imkonimiz mavjud. Biroq, agarda tashqi sabablar yoki zotlar qulay yoki hamkorlik qilmasa, ushbu harakatlarni "qo'lga kiritish"ning (bu yerda Ibn Rushd ularni amalga oshirishni nazarda tutadi) imkoni yo'q, Xudo bunday sabablar yoki zotlarni bizga xizmat qilish uchun yaratgan; shundan so'ng, biz o'zgartira oladigan harakatlar ikki omilga yoki determinatsiya chizig'iga, ya'ni bizning o'z qobiliyatlarimizga hamda tashqi sabablar yoki zotlarga bog'liq bo'ladi. Agar shunday bo'ladigan bo'lsa, deb yozadi u, "keyin biz o'zgartira oladigan harakatlar tashqi tomondan o'zimizning irodamiz va harakatlarning [yoki omillarning] xayrixohligi bilan ham amalga oshiriladi va bu Xudoning farmoni (qada) deb ataladi"[2].

Shunday qilib, Ibn Rushd determinatsiyaning ikkita yo'nalishini (chizig'ini) belgilaydi: oxir-oqibat Xudoning hukmi bilan belgilanadigan inson irodasi yoki tanlovi va tashqi sabablar yoki omillar to'plami. U uchun bu ikki determinatsiya chizig'i bir-biriga zid emas, balki bir-biriga mos keladi. Irodamizning ham, bizni harakat qilishga majbur qiladigan tashqi kuchlarning ham uyg'un ishlashini ta'minlaydigan narsa, - bu Xudo tomonidan asrlardan beri belgilab qo'yilgan sabablar va oqibatlar tartibining mukammal muntazamligidir. Ibn Rushdning ta'kidlashicha, bu tartib bizdan tashqarida yotgan sabablar yoki omillar bilan cheklanib qolmasdan, Xudo tanamizga solgan sabablarni ham o'z ichiga oladi. Shunday qilib, "ichki va tashqi sabablarning bu aniq tartibi, - deb yozadi u, - men bunda begunohlkni nazarda tutyapman, Xudo o'z xizmatchilariga buyurgan belgilab qo'yilganlik va hukum (qada' va qadar) sanaldi hamda u Saqlangan Bitiktaxta bilan sinonimdir"[3]. Bundan tashqari, yuqorida aytib o'tilgan sabablar va undan kelib chiqadigan oqibatlarni bilish, albatta, Xudoning eksklyuziv vakolati bo'lganligi tufayli, bu bilim ularning mavjudligining sababi ekanligi shundan kelib chiqadi. Ushbu bilim shaxsiy bilimimizdan farq qiladi, chunki u ma'lum bo'lgan hamma narsaning mavjudligiga sabab bo'ladi, bizning bilimimiz esa kelib chiqqan oqibatdir, deya u G'azzoliyning faylasuflar Xudo bilimlarini qisman inkor etgan, degan aybloviga javob qilgan. Al-G'azzoliy boshchiligidagi ashariylar, ko'rib turganimizdek, bu javobga e'tiroz bildirishgan, chunki u haqiqatan ham ularning oqibatlarini aniqlaydigan ikkilamchi sabablar borligini ko'rsatadi, ular tabiiyki buni rad etgan. Bundan tashqari, bu da'vo musulmonlarning dunyoda Xudodan boshqa faoliyat olib boruvchi zot yo'q, degan bir ovozdan qabul qilingan fikriga ziddir, bu fikrni esa G'azzoliy "Faylasuflarning nomuvofiqligi"da (17-savol) keltirib o'tgan; bunda Ibn Rushd hatto G'azzoliyning "Diniy fanlarning uyg'onishi" (al-Ihya) dagi argumentiga ishora qiladi. Bu yerda kimda kim Xudodan boshqa har qanday jonli yoki jonsiz mavjudotga zotning atributini qo'llasa, bu xuddi qalamga nisbatan yozuvchi yoki yozuv atributini qo'llaganga o'xshaydi, bu atribut faqat yozuvchiga tegishlidir[4].

Ibn Rushdning fikricha, bu analogiya qabul qilinishi mumkin emas. Bunga faqat agar yozuvchi qalam ixtirochisi yoki uning borliqdagi qo'riqchisi bo'lgan taqdirdagina yo'l qo'yilishi mumkin, bu hislat esa faqat Xudoga tegishli. Chunki faqat u ikkilamchi sabablarni keltirib chiqarishi va ularni o'zi xohlagancha oqibatlar bilan birga saqlab turishi mumkin. Shunday qilib, biz tabiatda kuzatadigan tartib ikki omilga bog'liq:

1. Xudo jonli va jonsiz mohiyatlarga joylagan narsalarning tabiati va xususiyatlariga.

2. Ushbu mohiyatlarga tashqi tomondan ta'sir qiladigan sabablarga, bularga yorqin misol biz odamlarga bo'ysunuvchi samoviy jismlarning harakatlari hisoblanadi. "Chunki Yaratguvchi ularning harakatlariga bergan tartib va muntazamlik tufayli bizning borligimiz va boshqa

[1] Fakhry M. Averroes. His life, Wprks and influence. – England, Oxford: Oneworld publication, 2001. – 188 pg.
[2] Averroes on Plato's 'Republic'; trans. R. Lerner, Ithaca and London: Cornell University Press, 1974. – 226 p.
[3] O'sha yerda, p. 227. Saqlangan Bitiktaxta - bu Qur'on qadim zamonlardan beri yozilgan kodeksidir (qonun), qarang Qur'on, 85:22.
[4] Fakhry M. Averroes. His life, Wprks and influence. – England, Oxford: Oneworld publication, 2001. – 188 pg.

narsalarning mavjudligi aynan shu yerda, pastda saqlanib qoladi; shunday qilib, agar kimdir bu yerda mavjud bo'lgan ulardan birortasining tugashini, yoki bu boshqa joyda, yoki boshqa miqdorda, yoki boshqa tezlik bilan sodir bo'lishini tasavvur qilsa, Xudo buni tayinlaganidan so'nggina, yer yuzida bor bo'lgan barcha mavjudotlar yo'qolib ketadi"[1].

Xuddi shunday, agar Xudo tanamizga joylagan ovqatlanish va idrok etish qobiliyatlari bo'lmaganida edi, Galen va boshqa faylasuflar, shifokorlar guvohlik berganidek, bizning tanamiz darhol nobud bo'lardi. Buni Qur'onning 16:12 kabi oyatlaridan biri tasdiqlaydi: "U sizga tun va kunduzni, quyoshni va oyni bo'ysundirdi" yoki 28:27 oyatda: "Rahm-shafqati bilan u tun va oyni yaratdi, siz uchun kun, shunda dam olishingiz va uning inoyatini so'rashingiz uchundir".

U qo'shimcha qilib, biz mavjud ob'yektlar qanday tarzda moddalardan yoki tasodiflardan iboratligini ham hisobga olishimiz kerak. Birinchilari faqat qudratli Xudo tomonidan yaratilishi yoki ixtiro etilishi, ular bilan bog'liq ikkinchi darajali sabablar esa ushbu moddalarga xos bo'lgan tasodiflarga ta'sir qilishi mumkin. Shunday qilib, dehqon yerni yumshatadi va urug'larni ekadi, ammo Xudo bug'doy donlariga shakl beradi. Bundan kelib chiqadiki, bu ma'noda Xudodan boshqa yaratuvchi yo'q, chunki Xudo tomonidan yaratilgan haqiqiy mavjudotlar tasodif emas, substansiyalardir[2].

Bundan tashqari, ashariylar Xudoning irodasi bilan sabablarning samaradorligini rad etishlari falsafa va umuman fanni rad etishlariga olib keladi. Inchinun, fan narsalarni ularning sabablari orqali bilishda ko'rinadi, falsafa esa ularning yakuniy sabablarini bilishda namoyon bo'ladi. Bunday rad etish, deya qo'shimcha qiladi u, inson tabiatiga begona va yana bir qarama-qarshilikni keltirib chiqaradi: ko'rinib turgan dunyoda sabablarning borligining inkor etgan kishi Ko'rinmas zot mavjudligini isbotlash imkoniga ega emas. "Shunday qilib, o'sha odamlar (sabab-oqibat munosabatlarini inkor etadiganlar) Qodir Xudoni bilish imkoniyatiga ega bo'lmaydilar, chunki ular har bir harakatning sababi borligini tan olmaydilar"[3]. Musulmonlarning bir ovozdan qabul qilgan fikriga ko'ra, G'azzoliy sabab-oqibat munosabatlarini inkor etishni qo'llab-quvvatlash uchun Xudodan boshqa zot yo'q, biz Ibn Rushdning fikriga ko'ra, ko'rinib turgan dunyoda hech qanday zot yo'qligini emas, balki aynan shu ko'rinib turgan zotlarni bilish orqali biz Ko'rinmas zotni kashf etishga olib keladi, degan narsani anglashimiz mumkin. Ushbu zotning mavjudligi aniqlangandan so'ng, biz boshqa hech qanday zot uning ruxsati va irodasi bilan boshqacha harakat qilmasligiga ishonch hosil qilamiz.

Ibn Rushd mutaziliylarning libertarian pozitsiyasini ham, ularning raqiblarining deterministik pozitsiyasini ham rad etadi. Ashariylarning taxmin qilingan "oraliq" pozitsiyasi, uning fikriga ko'ra, mutlaqo ma'nosizdir, chunki ularni odamning "qo'lga kiritish"iga beradigan yagona ma'nosi - bu odam qo'lining ixtiyoriy harakati va beixtiyor konvulsiv (qaltirash) harakati o'rtasidagi farq, xolos. Ammo ikkala harakat ham bizga bog'liq emasligi sababli, biz undan voz kechishga qodir emasmiz va shuning uchun ikkala holatda ham biz qaror qabul qiluvchi yoki majburlanganmiz. Shunday qilib, konvulsiv (qaltiroq) harakat hamda go'yoki "qo'lga kiritish" bilan yoki ixtiyoriylik bilan sodir bo'ladigan qo'l harakati aslida identik sanaladi, ularning orasidagi yagona farq bu faqat semantik yoki verballikda[4].

Shu bois Ibn Rushd ushbu qarashlarga raddiyasi orqali o'z pozitsiyasini yaratishga musharraf bo'lgan. Bundan ko'rinib turibdiki Xudo tomonidan yaratilgan bandaning ixtiyoriy ishlari ham, biror sabab orqali, atrofdagilarning ta'siri asosida kelib chiqqan harakatlar ham, majburiy tarzda amalga oshirgan ishlari ham Yaratuvchining irodasi ostida amalaga oshiriladi. Chunki aynan uning bergan ushbu hislatlari, sabablari orqaligini u erkin holda biron narsani amalga oshirishi mumkin. Ya'ni insonning har qanday bajargan erkin ishini oqibati ham, sababi ham faqat Qodir Xudoga ma'lum. Xullas, bu munosabatlarning barchasi bir biriga zid yoki qarama qarshi emas balki uyg'un va bir birini to'ldiruvchi hisoblanadi.

---

[1] Averroes. Al-Kashf an Manihshal -Adillah, ed. M. Qasim, Cairo, 1961. - p.230.
[2] Fakhry M. Averroes. His life, Wprks and influence. – England, Oxford: Oneworld publication, 2001. – 188 pg.
[3] Averroes. Al-Kashf an Manihshal-Adillah, ed. M. Qasim, Cairo, 1961. - p. 232.
[4] Fakhry M. Averroes. His life, Wprks and influence. – England, Oxford: Oneworld publication, 2001. – 188 pg.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Averroes. Al-Kashf an Manihshal -Adillah, ed. M. Qasim, Cairo, 1961.
2. Averroes on Plato's 'Republic'; trans. R. Lerner, Ithaca and London: Cornell University Press, 1974.
3. Fakhry M. Averroes. His life, Wprks and influence. – England, Oxford: Oneworld publication, 2001. – 188 pg.
4. Raximdjanova D.S. Erkinlik tushunchasini transformatsion xususiyatini ikki davr o'rtasidagi differensiatsiyasini sotsiologik so'rovnoma orqali tahlili. - International scientific journal of Biruni. ISSN (E) 2181-2993. - Volume 2, Issue 02. - Tashkent, 2023. – Pg. 33-46.
5. Raximdjanova D.S. Ibn Rushd falsafasida zaruriyat va erkinlikni zamondoshlari fikrlari inkori asosidagi o'ziga xos talqini. - Oriental Renaissance: innovative, educational, natural and social sciences. ISSN 2181-1784. - Volume 4, Issue 02. - Tashkent, 2024. – Pg. 562-570.
6. Rakhimdjanova D.S. Practical importance of the transformational interpretation of the phenomenon of freedom in ancient times and in contemporaneity. - Philosophy and Life. ISSN: 2181-9505. - https://doi.org/10.5281/zenodo.6852328. - Tashkent, 2024. – Pg. 120-129.
7. Rakhimdjanova D.S. The concept of the idea of freedom in ancient and medieval philosophy. - Psychology And Education Journal. ISSN: 00333077. - https://doi.org/10.17762/pae.v58i1.1562. - 1195 Stroud Court Westerville, OH 43081, 2021. – Pg. 4553-4563.
8. Rakhimdjanova D.S. Comparative Analysis of the Interpretation of the Phenomenon of Transformational Freedom in Antiquity with Its Modern Approach. - International Journal of Social Science Research and Review. ISSN: 2700-2497. - http://dx.doi.org/10.47814/ijssrr.v6i1.921. - Germany, Duisburg, 2023. – Pg. 457-466.